



VALUES, THEIR DIALECTICS, AND THEIR SIGNIFICANCE IN UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY

Murod Rustamovich Shokirov

Senior Lecturer

Bukhara Academic Lyceum

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: value, dialectics, development mechanism, system of values, national tradition, prudence, thoughtfulness, etiquette, communication culture.

Received: 03.08.25

Accepted: 04.08.25

Published: 05.08.25

Abstract: This article discusses the essence, origin, development, types, and interrelations of values. In social life, values are among the most important, complex, and necessary subjects of study. The article examines the attitude toward values in the context of New Uzbekistan, explores related challenges, and suggests possible solutions. Values are analyzed as a system, with an emphasis on their practical and existential significance.

QADRIYATLAR, ULARNING DIALEKTIKASI VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHDAGI AHAMIYATI

Murod Rustamovich Shokirov

O'zbekiston Respublikasi

Ichki ishlar vazirligi Buxoro akademik litseyi- bosh o'qituvchisi

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: qadriyat, dialektika, rivojlanish mexanizmi, qadriyatlar sistemasi, milliy an'ana, vazminlik, mulohazakorlik, odob, muomala madaniyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadriyatlarning mohiyati, kelib chiqishi, rivojlanishi, turlari va o'zaro munosabati masalasi bayon etilgan. Jamiyat hayotida qadriyatlar nihoyatda muhim, murakkab va o'rganilishi zarur bo'lgan masalalardan sanaladi. Masalani yoritishda Yangi O'zbekiston sharoitida qadriyatlarga bo'lgan munosabat, ular bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqilgan va yechish yo'llari ko'rsatilgan. Maqolada qadriyatlar sistema holda o'rganilgan va ularning hayotiy

ahamiyati ko'rsatilgan.

ЦЕННОСТИ, ИХ ДИАЛЕКТИКА И ЗНАЧЕНИЕ В ОСМЫСЛЕНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Мурод Рустамович Шокиров

Старший преподаватель

Бухарского академического лицея

Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: ценность, диалектика, механизм развития, система ценностей, национальные традиции, сдержанность, рассудительность, этика, культура общения.	Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы сущности, происхождения, развития, видов и взаимосвязи ценностей. Ценности признаются одними из важнейших, сложных и необходимых к изучению явлений в жизни общества. В раскрытии темы рассмотрено отношение к ценностям в условиях Нового Узбекистана, обозначены существующие проблемы и предложены пути их решения. Ценности изучаются в системе, с акцентом на их жизненную значимость.
---	--

Kirish

Mamlakatimizda bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni milliy qadriyatlarni avaylash ruhida tarbiyalashga, ularni yuqori intellektual salohiyatli inson qilib tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada tan bermaydigan insonlar sifatida kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[1, b.146], degan fikri yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida barkamol inson etib tarbiyalashda barchaga g'ayrat bag'ishlamoqda.

Metodologiya

Maqola falsafiy-tahliliy, aksiologik va tarixiy yondashuv asosida yozilgan bo'lib, qadriyatlarning mohiyati, turlari va ularning rivojlanish mexanizmlari dialektik nuqtai nazardan o'rganildi. Tahlil davomida taqqoslash, tushuncha va kategoriyalarni aniqlash, tizimli yondashuv, mantiqiy-chuqur mulohaza yuritish metodlari qo'llanildi. Metodologik asos sifatida strukturalizm, evolyutsion va sivilizatsion nazariyalar uyg'unlikda tatbiq etildi.

Muhokama va natijalar

Mustaqillik jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan qadriyatlar sohasiga ham yangicha nazar tashlashni talab qildi. Aslida, qadriyatlarning o'zi ham ko'rinishi, amal qilish ko'lamini jihatidan jamiyat sistemasi kabi keng qamrovli hodisa bo'lib, ham moddiy, ham ma'naviy hodisalarda namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham bu masalasini o'rganish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, qadriyatlarning mohiyati jamiyat hayotida inson tomonidan erishilgan barcha yutuqlarda va muvaffaqiyatlarda o'z aksini topadi. Qadriyatlar qadimiy, doimiy, o'zgaruvchan va rivojlanuvchan narsalar, hodisalar va jarayonlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun qadriyatlarni o'rganishda qaysi zamonga, qaysi jamiyatga, qanday tuzumga, aynan kimga tegishli ekanligini hisobga olish kerak bo'ladi. Qadriyatlar insoniyatning ideali sifatida dunyoga keladi va uning buguni va ertasiga xizmat qiladi. Aslida ijtimoiy munosabat va jarayonlarning rivojlanishi ana shu qadriyatlar tufayli amalga oshadi. Shu ma'noda qadriyatlar insoniyatni rivojlanish tomon etaklovchi rolini o'ynaydi. Jamiyat tuzilmasining o'zgarishi qadriyatlar sistemasida, ularning mazmuni va mohiyatida ham chuqur o'zgarishlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun qadriyatlarni biri ikkinchisini taqazo qiluvchi va biri ikkinchisi bilan kurashuvchi juda ko'p unsurlardan tashkil topgan yaxlit sistema deb qarash kerak bo'ladi. Ular orasidagi o'zaro munosabatdan qadriyatlar rivojlanishi kelib chiqadi.

Qadriyatlarning milliy shakli jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy, ishlab chiqarish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Qadriyatlarning rivojlanishini tushunish uchun shu sohalarining har birida erishilgan yutuqlar va kamchiliklar e'tirof etilishi, asoslanishi talab qilinadi. Ular orasidagi o'zaro aloqalarni tashkil qilish har bir soha vakillarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Aytaylik, iqtisodiy tejamkorlik, ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'ymaslik, insonni yer yuzining eng oliy mavjudoti sifatida qadrlash, yer yuzida tinch-totuvlikni rivojlantirish, salomatlikni saqlash kabilarga oliy qadriyat sifatida e'tibor qilish kerak bo'ladi.

Jamiyat strukturasi barcha qatlamlari qadriyatlarga hech qachon bir xilda munosabat ko'rsatmaydi. Lekin bu bilan qadriyatlarning mohiyati va vazifasi o'zgarmaydi. Qadriyatlarga ana shunday turlicha munosabatlar asosida qadriyatlar rivojlana boradi.

Xuddi shuningdek milliy davlatchilik tuzilmalarida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi. Hozirgi paytda O'zbekistonda, shuningdek, Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida ham milliy qadriyatlarga, ularning umuminsoniy qadriyatlar sistemasida tutgan o'rni va ahamiyatiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu globallashtirish sharoitida milliy qadriyatlarni sog'lom holda saqlab qolish ehtiyojidan kelib chiqadi. Jamiyatda kelib chiqqan o'zgarishlar qadriyatlarning mazmuniga va vazifasiga ham ta'sir qiladi.

Aks holda globallashuv jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda milliy qadriyatlar unutilib ketishi muqarrardir. Bu uchun avvalo qadriyat va qadr tushunchalarini aniqlab olaylik. Qadriyat tushunchasining mohiyati qadimda keng ma'noda yaxshilik, foydalilik, ahamiyatlilik kabi tushunchalarda o'z aksini topgan. Ijtimoiy rivojlanish davomida borgan sari narsa va hodisalarning hayotda tutgan o'rni, zaruriyati va ahamiyatini ifodalash uchun o'ziga xos tushunchaga ehtiyoj tug'ilgan. Shunday ehtiyoj tufayli qadriyat tushunchasi kelib chiqqan.

Shuning uchun qadriyatlarga munosabat ko'rsatishda, qadriyat tushunchasini tariflashda ana shu ijobiy natijalarning barchasini hisobga olgan holda ish yuritish kerak bo'ladi. Falsafiy adabiyotlarda ko'pincha tushunchalarni tariflash qoidalariga yetarlicha amal qilinmaganligi uchun qadriyat tushunchasining mohiyati yetarlicha ochilmay qoladi, yohud tushunchani ta'riflash o'rniga uni xarakterlovchi jihatlarini tavsiflash bilan kifoyalanadi.

Qadriyat tushunchasi jahon falsafasi qomusida quyidagicha tariflangan: qadriyat voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy sotsiologik va aksiologik tushuncha. Bu tarifda insoning hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha qadriyatlar o'z aksini topgan. Inson uchun borliq, jumladan tabiiy va ijtimoiy atrof-muhit, tirik va notirik tabiatning eng muhim tomonlarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga egadir. Odamzodning yashashi, farzandlari hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy va axloqiy sohalarga tegishli bo'lgan qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlardir[4, b.646]. Bunda umuminsoniy va umumbashariy tushunchalar bir xil ma'noni ifodalovchi tushunchalar bo'lib, ularni aniqlashtirib olish zarur.

Qadriyatlar iborasining xilma-xil ma'noda ishlatilishi unga berilgan tariflarni turlicha bo'lishi ham sabab bo'lishi mumkin.

Qadriyat tushunchasining mohiyatini aniqlash uchun quyidgi tushunchalarga e'tibor qaratishimiz lozim: qadriyat- ahamiyatli, kerakli narsa ma'nosida; keraklilik ma'nosida; qadr-keraklilik darajasi; qadri baland-keraklilik darajasi baland, juda kerakli; qadrshunos-narsalarning kerakli, muhim ekanligini o'rganuvchi tushuna oladigan odam; beqadr-keraksiz yaroqsiz hisoblangan narsa. Qadriyatlar muammosiga bag'ishlangan falsafiy adabiyotlarda qadriyat tushunchasini "baho" tushunchasi bilan qiyoslash hollari uchraydi.

V. P. Tugarinov "qadriyat" va "baho" tushunchalarini bir-biridan farqlash zarurligini uqtiradi. Qadriyat real yoki orzudagi hodisa (bor narsa yoki ideal)dir, baho esa shu hodisaga munosabatni bildiradi. U yoki bu hodisani qadriyatlarga mansub hisoblash, ya'ni uni qadriyatlarga qo'shish yoki qo'shmaslik ana shu munosabatga-ijobiy yoki salbiy bahoga bog'liq.

Qadriyatlarning hayotdagi o`rni va ahamiyati baholash tufayli belgilanadi. Baholash esa insonlarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqishlaridan kelib chiqadi[2, b.12].

Sobiq ittifoq davrida qadriyatga ko`proq iqtisod nuqtai nazaridan qaralgan edi. Qadriyat tushunchasining mazmunini bilib olish avvalo qadr, keyin esa "baho" tushunchalarining ma`nosini bilib olish orqali amalga oshiriladi. Qadriyatning ahamiyati anglab olinmasa, qadri tushunilmasa unga to`g`ri baho berib bo`lmaydi. Aynan shu ma`noda qadriyatni baholash unga bo`lgan insoniy munosabatni ham ifodalaydi, bu esa o`z navbatida kishilarning talab ehtiyojlariga bog`liq. Inson nimanidir baholaganida, qadrini anglayotganida o`z ma`naviyati, bilimi, ehtiyojlaridan, talablari va maqsadlaridan kelib chiqadi. Bunda qadriyatning tarbiyaviy ahamiyati ko`rinadi. Qadrli yondashuv deganda narsa va hodisalarga qadrli bir narsa deb qarash nazarda tutiladi.

Akademik E.Yusupov qadriyatga baho berar ekan quyidagicha fikrni bayon etadi. "O`z davrida katta ahamiyatga ega bo`lgan, yangi sharoitlarga ham shaxs kamolotiga, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta`sir eta oladigan axloq normalarigina qadriyat bo`la oladi"[3, b.120].

Qadriyatlar haqida "Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot" nomli ilmiy ishlar to`plamida quyidagilarni o`qiymiz: "Qadriyat deganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo`lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne`matlari, hodisalari majmuini tushunmog`imiz lozim"[5, b.198].

Mustaqillik ilmiy ommabop lug`atida qadriyatga quyidagicha ta`rif berilgan. "Qadriyatlar jamiyatda kishilar o`rtasiga obro`ga, e`tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar moddiy narsa va ma`naviy boyliklar majmuasi"[6, b. 279].

"Ma`naviyat: asosiy tushunchalar" izohli lug`atida esa quyidagicha ta`rif berilgan: "Qadriyat inson va jamiyat ma`naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha"[7, b.707].

Tarbiya ensiklopediyasida esa "Qadriyat voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma`naviy ahamiyatini ko`rsatish uchun qo`llaniladigan tushuncha"[8, b.509]. Bu ta`riflar mohiyatan bir narsani ifodalasada ko`lam jihatdan turli xil voqea va hodisalarni qamrab olgan. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma`naviy boyliklar sifatida tushunish ilmiy jihatdan to`g`ri emas, chunki qadriyatlar mohiyat jihatdan bir bo`lsada, shakli jihatdan xilma-xildir. Ular moddiy, ma`naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar kabi shakllarda namoyon bo`ladi. Bular ichida insonning o`zi eng oliy qadriyat hisoblanadi.

Tushunchalarni ta`riflashda ularning mazmunini bayon etish bilan birgalikda mohiyatini ko`rsatishni talab qiladi. Tushunchaning mazmuni tushunchada aks etgan narsa va hodisalarning

nimalardan iborat ekanligini ko'rsatsa tushunchaning mohiyati esa uning asli nima ekanligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Shuning uchun tushunchaga ta'rif berishda ularning tarkibini tashkil etuvchi barcha turlarni hisobga olish shart. Ular orasidagi o'zaro munosabatlardan tushunchaning mohiyati kelib chiqadi. Muallif G'ulomxon G'ofurov o'zining "Milliy an'analar" nomli maqolasida milliy qadriyatlarning quyidagi turlarini ko'rsatadi: tabiiy qadriyatlar; iqtisodiy qadriyatlar; ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar; ma'naviy qadriyatlar; axloqiy qadriyatlar[9]. Bu ta'rif emas, turlar xolos.

Uning ko'lemi kengayishi va ijtimoiy ahamiyati ortib borishi natijasida shaxsiy qadriyatlarda oilaviy, jamoaviy, milliy qadriyatlar vujudga keladi. Masalan sog'lik shaxsiy qadriyat hisoblanadi. Millatning ravnaq topishiga aholi salomatligi muhim ahamiyatga ega bo'lgani bois u ham ijtimoiy, ham milliy tus oladi.

Qadriyatlar dialektikasi deganda biz milliy, mintaqaviy, umuminsoniy qadriyatlar tavsifiy bayonidan o'zimizni tiygan holda ular orasidagi o'zaro biri ikkinchisini talab qilish va o'zaro aks ta'sir qilish jarayonlari mohiyatini ochib berishga e'tiborni qaratamiz. Bu masala akademik J.Tulenov ilmiy tadqiqotining asosiy yo'nalishini o'zida ifodalaydi. Bu qadriyatlar rivojlanishi jarayonini ochib berish uchun zarur hisoblanadi.

Masalaga dialektik nuqtai nazar bilan yondashadigan bo'lsak, qadriyatlar sistemasida ko'lemi jihatidan eng katta bo'lgan tushuncha umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi. Mintaqaviy va milliy qadriyatlar uning tarkibiy qismi-elementlaridir. Milliy qadriyat hajm jihatdan eng tor, shu boisdan mazmunan keng tushuncha bo'lib, umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlarning rivojlanishi bilan o'z rivojiga erishadi. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar sistemasidan chiqarib tashlash mumkin emas. "Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning birligi va bog'liqligi jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotining asosiy shartlaridan hisoblanadi. Axloqiy qadriyatlarga rioya qilishni har bir shaxs o'zidan boshlashi kerak"[3, b.121].

O'zligini saqlab qolmoqchi bo'lgan har bir millat o'zi erishgan qadriyatlarni saqlab qolishga va rivojlantirishga harakat qiladi.

Shunday bo'lgani uchun ham umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishi milliy va shundan keyin mintaqaviy qadriyatlarni rivojlantirish yo'li bilan amalga oshadi. Qadriyatlarning rivojlanishi aslida, umuminsoniyat rivojlanishi mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Qadriyatlar rivojlanishi ana shunday dialektik yo'l bilan amalga oshadi.

Bu o'rinda mazkur jarayonning mohiyatini ochish uchun qadriyatlar turlari mazmunini yoritish zarurati kelib chiqadi. Avvalo qadriyatlar tabiiy, moddiy, madaniy-ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga ajratiladi. Tabiiy qadriyatlar deganda insonni o'rab turgan, uning hayoti

uchun muhim o'rin tutadigan, kelajagini belgilaydigan narsalar - yer, suv, havo, o'rmon, o'simlik va hayvonlar tushuniladi. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy qadriyat sifatida - insonlarning erkinligi, tengligi, birodarlik kabilarni ko'rsatish mumkin. Moddiy qadriyatlar deganda - inson qo'li bilan yaratilgan moddiy boyliklar, zavod, fabrika, asbob-uskunalar, turar joy, mol-mulk, noz-ne'matlar; madaniy-ma'rifiy qadriyatlar deganda ilmiy-texnikaviy imkoniyatlar, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, til, adabiyot, san'at, tarixiy obidalar tushuniladi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, qadriyatlar sohasi nihoyatda keng tarmoqli bo'lib, ularning har birida o'ziga xos muammo va yutuqlar bor. Ularning rivojlanishi har bir jamiyatda davlat tomonidan masalaga ko'rsatilgan e'tibor va amalga oshirilgan chora tadbirlarga bog'liq. Bularning barchasi zaminini jamiyatning iqtisodiy ahvoli va unga ko'rsatilgan intellektual salohiyati tashkil qiladi. O'z navbatida milliy qadriyatlar asrab-avaylangan va rivojlantirilgan jamiyatda iqtisodiy va intellektual holatlar ham yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shu tariqa jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy qadriyatlari o'zaro ta'sir qilib, jamiyatning umumiy rivojlanishini keltirib chiqaradi. Shu ma'noda qadriyatlarning rivojlanishi barcha sohalar bo'yicha jamiyatning rivojlanishi bilan teng deb qarash mumkin.

Jamiyat hayotining bu sohalarini qadriyatlar nuqtai nazaridan tushunish O'zbekiston faylasuflaridan akademik E. Yusupov, akademik J. Tulenov, professor Q.Nazarovlarning ishlari e'tiborga molik. Qadriyatlarning rivojlanishi masalasida falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori Shahlo Ahrorova tomonidan yozilgan tadqiqot ishini aytib o'tish o'rinli.

Bu mualliflar ko'pchilik holda xos sohalar bo'yicha qadriyatlarga munosabat ko'rsatadilar. Lekin ba'zi mualliflar qadriyatlarni dialektik tarzda rivojlanish mexanizmiga e'tibor qilmasdan ularni tasniflash bilan chegaralanadilar. Aslida qadriyatlarning rivojlanishi barcha sohalaridagi erishilgan yutuqlarning bir-biriga salbiy yohud ijobiy ta'sir etish tarzida ro'yobga chiqadigan jarayon. Jamiyat hayoti uchun asosiy omil sifatida tabiiy qadriyatlar muhim rol o'ynaydi. Barcha ma'naviy hodisalar ularning zaminida kelib chiqadi. O'z navbatida ma'naviy qadriyatlar ham iqtisodiy hayot hodisalariga ta'sir etib uning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Jamiyatda ilm-fanning rivojlanishi tufayli moddiy ishlab chiqarish rivojlanadi va aholining farovon yashashiga sabab bo'ladi. Moddiy va ma'naviy qadriyatlar orasida shunday dialektik aloqa davomida jamiyat rivojlanadi. Ijtimoiy munosabatlarning tarkibida ham uni rivojlantirishda ham inson asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Shu ma'noda insonning o'z ham eng oliy qadriyat hisoblanadi.

Jamiyat ham iqtisodiy, ham ma'naviy jihatlarning o'zaro birligi sifatida tuzumning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish usulidan kelib chiqadi. Ishlab chiqarish usuli o'zgarishi bilan ishlab chiqarish munosabatlari ham o'zgaradi. Qachonki jamiyatda ishlab chiqarish usuli ishlab chiqarish munosabatlariga mos kelmay qolsa shu holda qadriyatlar ham, qadriyatlarga bo'lgan

munosabat ham o'zgarib ketadi. Shu boisdan bir jamiyat uchun qadriyat hisoblangan voqea va hodisalar boshqa jamiyat uchun qadriyat hisoblanmay qoladi. Buni xususiy mulkchilikka taqiq qo'yilgan jamiyatlarda aniq ko'rish mumkin. Xususiy mulkka ega bo'lmagan inson hech qachon o'z erkinining ham, qadr-qimmatining ham haqiqiy egasi bo'la olmaydi. Chunki xususiy mulk xususiy manfaatlar orasidagi kurashni keltirib chiqaradi. Natijada manfaatlar orasidagi kurash qadriyatlar rivojlanishining mexanizmini tashkil etadi.

Qadriyatlarga munosabat o'zining uzoq o'tmishiga ega. Sharq xalqlarida milliy axloqiy qadriyatlarning rivojlanish manbalari Avesto, Qur'oni Karim, tarixiy voqealar, ilmiy kashfiyotlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, xalq amaliy san'ati, me'morchilik namunalari kabilar hisoblanadi. Ularda xalq erishgan barcha yutuqlar, jamiyat rivojlanishi uchun xizmat qiladigan barcha ijobiy voqea va hodisalar o'z aksini topgan.

Sharqda qadriyatlarga munosabat islom dini talablariga muvofiq tashkil etilgan edi. Tabiatni asrab-avaylash, ishlab chiqarilgan maxsulotlardan oqilona foydalanish, ilm-fanni rivojlantirish, insonni aziz va mukarram mavjudod sifatida qadrlash, inson hayotini asrab-avaylash, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi kabilar islom dinining muqaddas qadriyatlari edi. Ayniqsa, Sharq mamlakatlarida qadriyatlarni rivojlanishida islom dini kuchli ta'sir ko'rsatdi. Unda inson asosiy qadriyat sifatida, uning vazifasi hayotdan bahramand bo'lish uni asrab-avaylash, ilm-fanni rivojlantirish, komil insonni tarbiyalash deb belgilangan.

Falsafada qadriyatlarning rivojlanishi masalasi muhim masala hisoblanadi. Buni hal qilish uchun jamiyat sistemasini tashkil qiluvchi qadriyatlarga munosabatni, shuningdek, qadriyatlarning o'zaro munosabatini ham hisobga olish kerak.

Qadriyatlarga munosabat ko'rsatishda individual va ijtimoiy yondashuvlar bo'ladi. Har bir insonning yondashuvi individual, guruhlar tomonidan yondashuv esa ijtimoiy yondashuvdir.

Qadriyatlarga ijtimoiy va individual yondashuv dialektik munosabatda bo'ladi. Ular kelishishi va biri ikkinchisini rad qilishi ham mumkin. Bu ham qadriyatlarni rivojlantiruvchi jarayondir. Milliy qadriyatlar asosida milliy g'oya yotadi. Yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan millat o'z qadriyatlaridan mahrum bo'ladi. Shuning uchun qadriyatlarga munosabat ko'rsatganda ularni tartibga solish va boshqarishda g'oyaga e'tibor qilish ularni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Xalqlarimiz hayotiga juda ko'p marotaba tashqi tajovuzlar bo'lib qadriyatlarimizni o'zgartirib yuborganligini bilamiz. Masalan Eron, yunon-makedon, arab, mo'g'ul va nihoyat, rus istilolari natijasida qadriyatlarimiz jiddiy zarar ko'rgan edi. Har istilodan keyin hayotga yangicha qadriyatlar kirib keldi. Qadriyatlarning yangi sistemasi paydo bo'ldi. Arab istilosidan keyin paydo bo'lgan e'tiborga molik qadriyatlardan insonlarni ilm o'rganishga da'vat qilish, tinchlik

va salomatlikni asrab-avaylash, o'zaro do'stlik munosabatlarini tashkil qilish, halol yashash, insonni sevish kabi qadriyatlar musulmonchilikning rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu qadriyatlar ta'sirida ulug' allomalar Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, ibn Sinolar paydo bo'ldilar. Ularning ilm-fan sohasida erishgan yutuqlari asosida yangicha qadriyatlar paydo bo'ldi. Temuriylar davrida qadriyatlarga bo'lgan munosabat yaxshilandi. Temuriylar saltanati parchalanishi bilan qadriyatlarga munosabat ham o'zgardi. Bu esa jamiyatda parokandalikni keltirib chiqardi.

Qadriyatlarga yondashuv ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot hamda kishilarning intellektual va amaliy faoliyati jarayonida o'zgarib, shakllanib, takomillashib boradi.

Qadriyatlarni o'rganishda sistema sifatida yondashuv muhim ahamiyatga ega. Shunda qadriyatlarga yondashuvning shaxsiy, ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy jihatlari orasidagi dialektik munosabat ochiq-oydin namoyon bo'ladi.

Falsafiy bilimi va dunyoqarashi rivojlangan inson hech qachon milliy manfaatlar qobig'ida o'ralashib qolmaydi. Milliy qadriyatlar bilan kifoyalanib, jahon madaniyati, boshqa xalqlarning ma'naviy boyliklarini o'rganishdan butunlay voz kechishi mumkin emas. Dunyodagi biror xalq o'z milliy madaniyati, boyliklari doirasidagina rivojlana olmaydi. Milliy xudbinlik yo'lidan borish hech kimga naf keltirgan emas. Milliy manfaat, milliy madaniyat qobig'ida cheklanib qolgan inson o'zini ham, xalqini ham to'la kamol topish imkoniyatidan mahrum qiladi. Falsafiy dunyoqarash va madaniyatga ega bo'lgan inson milliy qadriyatlar bilan, umuminsoniy qadriyatlarni bir-biridan ajratib tashlamaydi, ularni dialektik birlikda olib qaraydi. Shu sababli ana shu birlik, o'zaro boyish hisobigagina jahon xalqlarining madaniyatlari, umuminsoniy qadriyatlar rivojlanishi mumkin [2, b.240]-deydi J.Tulenov.

Qadriyatlarning rivojlanishi tarixiy bo'lganligi uchun ularga yondashish ham tarixiy bo'lishi kerak. Ijtimoiy-siyosiy vaziyatga qarab, qayerdadir tinchlik, qayerdadir erkinlik va salomatlik qadriyatlar sistemasi asosiy halqaga aylanishi mumkin. Qadriyatlarning amal qilish davri bu tizimdagi har bir tarkibiy qismning o'zni va ketma-ketligi, vaqt, taraqqiyot darajasi hamda mazkur tizim amal qilayotgan jamiyatning yashash davri bilan bog'liq.

Jamiyat o'zgarganda fikr erkinligi, turlichalik kelib chiqadi. Qarama-qarshi tomonlar orasidagi dialektik munosabat asosida rivojlanish amalga oshadi.

G'oyalar kurashida ham qadriyatlar aks etadi. Jamiyatda har bir guruh, har bir inson o'z g'oyalarini qadrli deb bilgani sababli kurashib keladi. Qadrli g'oyalar orasidagi ana shunday kurash davomida butun jamiyat rivojlana boradi.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsak qadriyatlarni bilishning ahamiyati shundan iboratki, ular insonning hayot kechiruvi, yondashuvi, tabiat va jamiyatga munosabati va qarashlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda qadriyatlarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy faoliyatga ta'sir etishi jihatidan ham o'rganish, tahlil qilish kerak bo'ladi.

Umuminsoniy qadriyatlarga millatga xos bo'lgan unsurlar ham ta'sir etadi. Shuningdek, mazkur munosabatlarda ma'lum bir elga, hududga, millatga xoslik ham aks etishi mumkin. Masalan, demokratiya amal qilishida ham shunday milliylik xususiyatlari-vazminlik, mulohazakorlik, o'dob va muomala madaniyati kabilar aks etganini ko'ramiz.

Shu jihatdan ham O'zbekistonda qadriyatlarga yangicha yondashuv shakllanishini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, mavjud tizimda sub'ektning voqelikka munosabati uning aksiologik yondashuvida ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz/Toshkent - "O'zbekiston" - 2017
7. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - T.: O'zbekiston, 1998.
3. E.Yusupov Inson kamolotining ma'naviy asoslari. "Universitet" nashr. 1998 yil
4. Nazarov Q. Aksiologiya. Toshkent, "Akademiya" 2011.
5. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to'plami) T. "O'zbekiston", 1997.
6. Mustaqillik izohli ilmiy ommabop lug'ati. A.Jalolov, Q.Xonazarov umumiy taxriri ostida. Toshkent. Sharq. 1998
7. Ma'naviyat: Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-Matbaa ijodiy uyi" Toshkent., 2010.
8. Tarbiya entsiklopediyasi 2010 yil.
9. G'. G'ofurov. Milliy an'analar. Xalq so'zi. 1993 yil., 11 fevral.
10. Sobirovich, T. B. (2024). The national idea as a driving force behind ideospheric transformation in Uzbekistan: Exploring its implications and impact. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 8(3), 170-176.
11. Turdiev, B. S. (2024). Balancing national and universal perspectives: the dialectical dynamics in society's ideosphere. Asian Journal of Basic Science & Research, 6(3), 59-65.